

YANGI O'ZBEKISTON IMIDJINI RIVOJLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING RO'LI

Xodjaeva Nigora Sherxonovna

*O'zbekiston Respublikasi prezidenti administratsiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
televidenie va radio bilan ishlash bo'limi boshlig'i*

Annotatsiya: Mazkur ish Ommaviy axborot vositalarining Yangi O'zbekiston imidjini rivojlantirishdagi o'rnini batafsil tahlil qilishga qaratilgan. OAVning axborot tarqatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va xalqaro miqyosda milliy brendni targ'ib qilishdagi roli o'rganilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy kommunikatsiya vositalari va internet jurnalistikasining ahamiyati, OAV orqali milliy imidjni shakllantirishning usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, mavjud tajribalar va ilmiy adabiyotlar asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ommaviy axborot vositalari, Yangi O'zbekiston, imidj, milliy brend, jamoatchilik fikri, axborot tarqatish, internet jurnalistika, kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, global miqyos.

KIRISH

Yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeini mustahkamlash va milliy imidjni rivojlantirish mamlakatning strategik vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda Ommaviy axborot vositalarining (OAV) roli juda katta. OAV nafaqat axborot tarqatish vositasi sifatida, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish va milliy brendni xalqaro maydonda targ'ib qilish vositasi sifatida ham ahamiyatlidir. So'nggi yillarda internet jurnalistikasi va ijtimoiy tarmoqlarning ommaviylashishi ushbu jarayonda yangi imkoniyatlar yaratdi.

Ushbu tadqiqotda adabiyotlar tahlili, taqqoslash, umumlashtirish va tizimli yondashuv usullari qo'llanildi. Maqolani tayyorlash jarayonida milliy va xorijiy manbalardagi ilmiy ishlar, maqolalar, tadqiqotlar o'rganildi. Shuningdek, zamonaviy

OAVning imkoniyatlari, usullari va texnologiyalari hamda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati tahlil qilindi.

Yangi O'zbekistonni dunyo maydonida tanitish, uning milliy imidjini shakllantirish va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu maqsadda ommaviy axborot vositalarining o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Mazkur maqolada OAVning davlat imidjini shakllantirish va rivojlantirishdagi roli, imkoniyatlari va vazifalari tahlil qilinadi.

Ommaviy axborot vositalarining roli

Ommaviy axborot vositalari (OAV) zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarini yoritish, aholining ma'lumot olish huquqini ta'minlash, shuningdek, davlat va xalq o'rtasidagi muloqotni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.

Axborot tarqatish va ijtimoiy ongni shakllantirish

OAV orqali mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, rivojlanish dasturlari va ijtimoiy o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar aholiga yetkaziladi. Ushbu jarayonlar haqida xolis va tezkor axborot berish, jamiyatni to'g'ri ma'lumotlar bilan ta'minlash davlatning ijobiy imidjini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, OAV orqali Yangi O'zbekistonning demokratiyani mustahkamlash, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidagi sa'y-harakatlari keng yoritiladi. Bu esa xalqaro hamjamiyat tomonidan mamlakatga bo'lgan ijobiy qarashlarni kuchaytiradi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish

OAV orqali xorijiy auditoriyaga mamlakatning iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatlari haqida ma'lumot yetkazish imkoniyati mavjud. Xalqaro ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, xorijiy jurnalistlar va blogerlar uchun press-turlar tashkil qilish Yangi O'zbekistonning imidjini yaxshilashga ko'mak beradi.

Shuningdek, turli tillarda nashr qilinadigan milliy jurnal va nashrlar orqali xalqaro jamoatchilikka O'zbekistonning yangilanish jarayonlari haqida ma'lumot yetkazish ham dolzarbdir.

Milliy brendni yaratish va rivojlantirish

Ommaviy axborot vositalari milliy brendni yaratishda ham asosiy o'rin tutadi. Madaniyat, san'at, sport va turizm sohalarida erishilgan yutuqlarni keng targ'ib qilish orqali mamlakatning ijobiy imidjini xalqaro miqyosda yuksaltirish mumkin.

Yangi O'zbekistonni xalqaro maydonda ilgari surishda, ommaviy axborot vositalarining turizmni rivojlantirishdagi o'рни ham muhim ahamiyatga ega. Madaniy merosni targ'ib qilish, tarixiy va tabiiy obidalarni keng ommaga tanitish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar milliy brendni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jamiyatda ochiqlikni ta'minlash

OAV davlat va jamiyat o'rtasida muloqotning ochiqligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayonda OAVning tanqidiy yondashuvi, mavjud muammolarni ochib berish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni berish orqali davlat boshqaruvini takomillashtirishga hissa qo'shadi.

OAV orqali davlat siyosatidagi ochiqlikni ta'minlash va aholiga real ma'lumotlar yetkazish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi va davlatga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi.

Virtual media va raqamli platformalarning o'рни

Zamonaviy davrda ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlar va bloglar milliy imidjni targ'ib qilishda o'ta samarali vositaga aylandi.

Yangi O'zbekistonning xalqaro miqyosda tanilishiga ijtimoiy media platformalarining roli ham muhimdir. Bloggerlar va internet media orqali davlatning ijobiy imidjini yaratish, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni keng ommaga yetkazish samarali bo'lmoqda.

Madaniyatlararo muloqot

Ommaviy axborot vositalari madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida ham foydalaniladi. Yangi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishda madaniy diplomatiyani ommaviy axborot vositalari orqali olib borish muhim ahamiyatga ega.

OAVning Yangi O'zbekiston imidjini rivojlantirishdagi roli bo'yicha olingan natijalar adabiyotlarda keltirilgan fikrlar bilan solishtirilganda, uning xalqaro maydondagi ahamiyati yana bir bor tasdiqlandi. Shu bilan birga, OAVning salbiy ta'sirini oldini olish va milliy manfaatlarni himoya qilish masalalari ham ko'rib chiqildi. OAV orqali berilayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligi va sifatini oshirish uchun maxsus tizimlar va nazorat mexanizmlarini joriy etish zarurligi ta'kidlandi.

XULOSA

Yangi O'zbekiston imidjini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining roli juda katta. Davlatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashda, jamiyatning ichki ma'naviy va axloqiy barqarorligini ta'minlashda OAVning ahamiyati ortib bormoqda. Shu sababli, milliy va xalqaro miqyosda axborot tarqatish tizimini yanada takomillashtirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifalardan biridir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, OAV Yangi O'zbekiston imidjini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Milliy brendni xalqaro maydonda targ'ib qilish uchun OAV imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur. Shu bilan birga, zamonaviy internet jurnalistikasi va kommunikatsiya vositalaridan kengroq foydalanish, ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumot tarqatish usullarini rivojlantirish lozim.

OAV orqali Yangi O'zbekistonning ijobiy imidjini yaratish uchun maxsus axborot strategiyalarini ishlab chiqish.

Internet jurnalistikasi va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

OAV orqali milliy qadriyatlar va madaniy merosni targ'ib qilishga yo'naltirilgan maxsus dasturlar yaratish.

OAVning xalqaro maydonda O'zbekiston imidjini yoritishdagi rolini oshirish uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigidan

2. M.M.Inagamova. Konstitutsiyaviy islohotlarda inson–jamiyat– davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1. T.: 2023. B. 59-64.
3. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.02.2019-y., 07/19/4151/2569-son; 28.06.2019-y., 07/19/4366/3343-son; 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son; 26.04.2022-y., 07/22/221/0357-son)
4. M.M. Inagamova. R.I.Rahmatullayev. Konstitutsiya kelajagimizning huquqiy kafolatidir / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December
5. M.Nurmetova.O‘zDJTU magistri. Ommaviy Axborot Vositalari-jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim elementi sifatida.
6. Dadasheva A.A.. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro institutlar (2023) Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90